

MAKTAB – OTM – KORXONA INTEGRATSIYASI ASOSIDA KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH: O‘ZBEKISTON MISOLIDA STATISTIK TAHLIL

Sapayev Doston Ulug‘bek o‘g‘li

Oriental universiteti magistranti

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonda umumta’lim maktablari o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish tizimining 2023–2026-yillardagi holati «maktab – oliy ta’lim muassasasi – korxona» uch tomonlama integratsiyasi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqot Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Kasbiy ta’lim agentligi hamda Milliy statistika qo‘mitasining ochiq rasmiy ma’lumotlariga asoslangan hujjatli tahlil va deskriptiv statistika usullari yordamida amalga oshirildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kasbga yo‘naltirishning qamrov ko‘rsatkichlari keng (1,8 mln nafardan ortiq o‘quvchi), biroq bevosita kasbiy tayyorgarlik ulushi umumiy o‘quvchilar sonining atigi 0,26 foizini tashkil etadi; 9-sinf bitiruvchilarining 21,5 foizi kasb-hunar maktabiga hujjat topshirgani holda, ulardan atigi 10,5 foizi dual ta’limni tanlagan. Muallif tomonidan tizimning eng jiddiy metodologik bo‘shlig‘i aniqlandi: respublika miqyosida uch tomonlama integratsiyani baholovchi yagona statistik indikator yuritilmaydi. Shu asosda «kirish – jarayon – natija – ta’sir» mantiqiga tayangan baholash modeli va o‘n ikki mezonli indikatorlar tizimi taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *kasb-hunarga yo‘naltirish, maktab–OTM–korxona integratsiyasi, dual ta’lim, kasbiy ta’lim qamrovi, NEET, natijaviy indikatorlar, inson kapitali.*

Annotation. *The article analyses the state of career guidance for general secondary school students in Uzbekistan in 2023–2026 from the perspective of the tripartite “school – university – enterprise” integration. The study is based on documentary analysis and descriptive statistics of open official data. The results show that although the coverage indicators are broad (over 1.8 million students), the share of students receiving direct vocational preparation is only 0.26 % of the total student population; while 21.5 % of ninth-grade graduates applied to vocational schools, only 10.5 % of them chose dual education. The author identifies the key methodological gap: no single national statistical indicator measures tripartite integration. An evaluation model based on the «input – process – output – impact» logic and a twelve-criteria indicator system are proposed.*

Keywords: *career guidance, school–university–enterprise integration, dual education, vocational education coverage, NEET, outcome indicators, human capital.*

KIRISH

Ta’lim tizimi bilan mehnat bozori o’rtasidagi tarkibiy nomuvofiqlik zamonaviy ta’lim iqtisodiyotining markaziy muammolaridan biri hisoblanadi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, maktab bosqichida ish beruvchilar bilan real aloqada bo’lgan o’quvchilar kelgusida yuqori bandlik va daromad ko’rsatkichlariga ega bo’ladi (Mann, Denis & Percy, 2020; Musset & Kurekova, 2018). Kasbiy ta’limning mehnat bozoriga yo’naltirilgan modellari, xususan dual ta’lim, yoshlar ishsizligini qisqartirishning eng samarali vositalaridan biri sifatida e’tirof etilgan (Eichhorst, Rodríguez-Planas, Schmidl & Zimmermann, 2015). Ayni paytda avtomatlashtirish va raqamlashtirish tufayli kasblar tarkibining tez o’zgarishi kasbga yo’naltirish tizimidan doimiy moslashuvchanlikni talab qilmoqda (Musset & Kurekova, 2018).

O‘zbekistonda so‘nggi to‘rt yilda kasbga yo‘naltirish sohasidagi me‘yoriy-huquqiy baza jadal shakllandi va 2025-yil 23-oktabrdagi PQ-316-son qaror bilan 2030-yilgacha aniq maqsadli ko‘rsatkichlar belgilandi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2025). Biroq ilmiy adabiyotda mazkur islohotlarning amaldagi natijalarini yagona metodologik ramka asosida baholovchi tadqiqotlar yetarli emas. Mazkur maqolaning maqsadi - O‘zbekistonda kasb-hunarga yo‘naltirish tizimining hozirgi holatini “maktab – OTM – korxona” integratsiyasi nuqtai nazaridan miqdoriy baholash va tizimdagi metodologik bo‘shliqlarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqot quyidagi savollarga javob izlaydi: (1) kasbga yo‘naltirishning haqiqiy qamrovi va amaliy tayyorgarlik darajasi qanday nisbatda; (2) o‘quvchining maktabdan kasbiy ta’limga o‘tish trayektoriyasi qanday tarayadi; (3) amaldagi statistika uch tomonlama integratsiyani o‘lchay oladimi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot hujjatli tahlil (document analysis) va deskriptiv statistika usullariga asoslanadi. Empirik baza sifatida davlat organlarining ochiq rasmiy hisobotlari tanlab olindi (1-jadval). Ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlash maqsadida faqat birlamchi manbalar — vazirlik va agentliklarning rasmiy portallari hamda Milliy statistika qo‘mitasining ma’lumotlar bazasi qo‘llanildi.


1-jadval. Tadqiqotning empirik axborot bazasi

Manba	Foydalanilgan ko‘rsatkichlar	Davr	Turi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi	Maktablar va o‘quvchilar soni, kasbga yo’naltirish tadbirlari, kasb o‘qitiladigan maktablar	2023–2026	hisobot

Manba	Foydalanilgan ko‘rsatkichlar	Davr	Turi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi	Kasb-hunar maktablariga qabul, professional ta’lim tarmog‘i, OTM tarmog‘i	2024–2025	hisobot
Kasbiy ta’lim agentligi	Dual ta’lim, hamkor ish beruvchilar, pedagoglar malakasi	2024–2025	hisobot
Milliy statistika qo‘mitasi	Yoshlar ishsizligi, NEET ulushi, bitiruvchilar soni	2018–2024	statistika
Me’yoriy-huquqiy hujjatlar	Maqsadli ko‘rsatkichlar va institutsional o‘zgarishlar	2022–2026	hujjat

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Baholash uchun ta’lim dasturlarini baholashning klassik CIPP yondashuvidan (Stufflebeam, 2003) moslashtirilgan “kirish – jarayon – natija – ta’sir” to‘rt darajali modeli ishlab chiqildi (1-rasm). Model har bir darajaga amaldagi rasmiy statistikada mavjud bo‘lgan indikatorlarni biriktirish imkonini beradi va darajalar o‘rtasidagi uzilishlarni, masalan, keng qamrovga qaramay past natijani aniqlashga xizmat qiladi.



1-rasm. Kasb-hunarga yo‘naltirish samaradorligini baholashning to‘rt darajali modeli

Manba: CIPP modeli (Stufflebeam, 2003) asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

NATIJALAR

2025-yil yakunlariga ko‘ra respublikada 10 193 ta umumta’lim maktabi faoliyat yuritgan, ularda 6,5 mln nafar o‘quvchi tahsil olgan; 2024/2025-o‘quv yilida 633 952 nafar 9-sinf va 433 503 nafar 11-sinf o‘quvchisi maktabni tamomlagan (Maktabgacha va maktab ta’limi


vazirligi, 2026). Kasbga yo‘naltirish faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari 2-jadvalda umumlashtirilgan.

2-jadval. Kasbga yo‘naltirish faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Qiymat	Davr	Ulush*
Umumta’lim maktablari	10 193 ta	2025	100 %
Maktab o‘quvchilari	6,5 mln nafar	2025	100 %
Kasb o‘qitiladigan maktablar	400 ta	2026	3,9 %
Korxona bilan tanishtirilganlar	1,8 mln nafardan ortiq	2023	27,7 %
Bevosita kasbiy tayyorgarlikdagilar	17 082 nafar	2023	0,26 %
Kasbga yo‘naltirish tadbirlari, jami	41 531 ta	2023	—
Tasdiqlangan kasb-hunar yo‘nalishlari	65 ta	2024	—

* Ulush mos ravishda maktablar yoki o‘quvchilarning umumiy soniga nisbatan hisoblangan. Manba: MMTV va OTFIV hisobotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Miqdoriy tahlil qamrov va kompetensiya shakllantirish darajasi o‘rtasidagi keskin tafovutni ko‘rsatadi (2-rasm). Kasbiy tanishtiruv tadbirlari bilan qamrab olingan 1,8 mln nafar o‘quvchining atigi 0,95 foizi, umumiy o‘quvchilar sonining esa 0,26 foizi bevosita kasbiy tayyorgarlikdan o‘tgan. Bu «qamrab olindi» ko‘rsatkichini «kasb egalladi» deb talqin qilish metodologik jihatdan asossiz ekanini tasdiqlaydi.



2-rasm. Kasbga yo‘naltirish qamrovi va bevosita kasbiy tayyorgarlik o‘rtasidagi tafovut, 2023-yil

Manba: MMTV hisoboti asosida muallif hisob-kitoblari (logarifmik shkala).

Kasbga yo‘naltirishning real samaradorligini baholashning eng ishonchli usuli o‘quvchilar oqimini bosqichma-bosqich «voronka» modelida kuzatishdir. 2024/2025-o‘quv yili uchun kasb-hunar maktablariga 136 376 nafar 9-sinf bitiruvchisi hujjat topshirgan, ulardan 14 324 nafari dual ta’lim shakli bo‘yicha ariza bergan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, 2025).



3-rasm. O‘quvchilarning maktabdan kasbiy ta’limga o‘tish trayektoriyasi

Manba: MMTV va OTFIV ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Voronka tahlili muhim qonuniyatni ochib beradi: 9-sinf bitiruvchilarining 21,5 foizi kasb-hunar maktabiga hujjat topshirgani holda, ular ichida bevosita korxona sharoitida o‘qishni, ya’ni dual ta’limni tanlaganlar ulushi atigi 10,5 foizni tashkil etadi. Boshqacha aytganda, “korxona bilan real aloqa»ga chiqadigan oqim har bosqichda keskin toraymoqda.

Professional ta’lim bosqichida ish beruvchilar bilan hamkorlik sezilarli darajada rivojlangan: 2024-yilda 418 ta kasbiy ta’lim tashkiloti 7 677 ta korxona bilan hamkorlikda 30,8 ming nafar o‘quvchini dual ta’limga jalb etgan bo‘lsa, 2025-yil yakunida bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 67,4 ming nafar va 17 040 ta ish beruvchini tashkil etdi (Kasbiy ta’lim agentligi, 2026).

3-jadval

Dual ta’lim ko‘rsatkichlarining dinamikasi va nisbiy tahlili


Ko‘rsatkich	2024-yil	2025-yil	O‘zgarish
Dual ta’limdagi o‘quvchilar, ming nafar	30,8	67,4	+118,8 %
Hamkor ish beruvchilar, ta	7 677	17 040	+121,9 %
Dual ta’lim kasblari, ta	114	140	+22,8 %

Ko‘rsatkich	2024-yil	2025-yil	O‘zgarish
Bitta ish beruvchiga o‘quvchi, nafar	4,0	4,0	0,0 %
Texnikum o‘quvchilaridagi ulushi, %	—	15,4	—

Manba: OTFIV va Kasbiy ta’lim agentligi hisobotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Diqqatga sazovor jihat shundaki, o‘quvchilar va hamkor korxonalar soni ikki baravardan ortiq oshgani holda, bitta ish beruvchiga to‘g‘ri keladigan o‘quvchi soni 4 nafar darajasida o‘zgarishsiz qolgan. Bu o‘shishning ekstensiv xarakterga ega ekanini, ya’ni kengayish hamkorlikni chuqurlashtirish emas, asosan yangi korxonalarni jalb qilish hisobiga sodir bo‘layotganini ko‘rsatadi.

Kasbga yo‘naltirishning yakuniy samaradorligi ta’limdan mehnat bozoriga o‘tish ko‘rsatkichlari orqali baholanadi. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 16–30 yoshdagi yoshlar ishsizligi 2018-yildagi 15,1 foizdan 2024-yilda 11,2 foizga, o‘qimayotgan va ishlamayotgan 16–24 yoshdagi yoshlar (NEET) ulushi esa 30,5 foizdan 12,4 foizga tushgan (Milliy statistika qo‘mitasi, 2025).



4-rasm. Yoshlar ishsizligi va NEET ko‘rsatkichlarining dinamikasi, %


Manba: Milliy statistika qo‘mitasi (2025) ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Tendensiya ijobiy bo‘lsa-da, 11,2 foizlik yoshlar ishsizligi mamlakatdagi umumiy ishsizlik darajasidan qariyb ikki baravar yuqori. NEET ko‘rsatkichining 2023–2024-yillarda 22,8 foizdan 12,4 foizga keskin pasayishi esa metodologik ehtiyotkorlikni talab qiladi: bunday bir yillik sakrash qisman hisob metodikasidagi o‘zgarishlar bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin.

MUHOKAMA

Olingan natijalar uch guruh xulosaga olib keladi. Birinchidan, O‘zbekistonda kasbga yo‘naltirish tizimi hozircha «jarayon indikatorlari» mantiqida ishlamoqda: tadbirlar soni va qamrov keng qayd etiladi, biroq kompetensiya shakllantirish natijasi juda past. Bu holat xalqaro adabiyotda ham qayd etilgan tipik muammo bo‘lib, kasbga yo‘naltirish faoliyatining sifati miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan almashtirilishi uning ijtimoiy samarasini pasaytiradi (Hooley, Sultana & Thomsen, 2018).

Ikkinchidan, kasbiy ta‘lim bosqichida ish beruvchilar bazasi shakllangan (17 040 ta korxona), ammo umumta‘lim maktabi bosqichida bu resurs deyarli ishlatilmaydi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ish beruvchilar bilan aloqa qanchalik erta boshlansa, kasbiy tanlovning barqarorligi shunchalik yuqori bo‘ladi (Musset & Kurekova, 2018; Mann et al., 2020).



5-rasm. Amaldagi aloqalar tizimi va monitoringdagi metodologik bo‘shliq

Manba: rasmiy hisobotlar tahlili asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Uchinchidan, tadqiqotning asosiy yangiligi sifatida quyidagi metodologik bo‘shliq aniqlandi: ko‘rib chiqilgan ochiq rasmiy hisobotlarning birortasida “maktab – OTM – korxona” uch tomonlama integratsiyasini respublika miqyosida baholovchi yagona statistik indikator uch tomonlama shartnomalar soni, OTM mentoriga ega o‘quvchilar ulushi yoki korxona sharoitida kasbiy sinovdan o‘tgan maktab o‘quvchilari soni e‘lon qilinmagan (5-rasm).

Aniqlangan bo‘shliqni bartaraf etish uchun muallif tomonidan o‘n ikki mezonli indikatorlar tizimi taklif etiladi (4-jadval). Tizim baholashni jarayon ko‘rsatkichlaridan natija va ta’sir ko‘rsatkichlariga o‘tkazishga xizmat qiladi.

4-jadval

Kasb-hunarga yo‘naltirish samaradorligini baholashning taklif etilayotgan indikatorlari

№	Baholash mezon	Asosiy indikator	Amaldagi qiymat
1	Qamrov	Kasbiy ta’limga o‘tgan 9-sinf bitiruvchilari	29 %
2	Amaliy tayyorgarlik	Kasb o‘qitiladigan maktablar	400 ta (3,9 %)
3	Kasbiy kompetensiya	Amaliy imtihon va sertifikat	tizim joriy etilgan
4	Korxona integratsiyasi	Dual ta’limdagi o‘quvchilar	67,4 ming nafar
5	Ish beruvchilar ishtiroki	Hamkor ish beruvchilar	17 040 ta
6	Diversifikatsiya	Dual ta’lim kasblari	140 ta
7	Moddiy-texnik baza	Takomillashtirish indikator	5 %
8	Kadrlar salohiyati	Malaka toifali pedagoglar	35,8 %
9	Yoshlar bandligi	16–30 yoshlar ishsizligi	11,2 %
10	Ijtimoiy chetlashuv	16–24 yoshlar NEET ulushi	12,4 %
11	OTM–bozor aloqasi	«Kelajakka qadam» markazlari	80 ta OTM

№	Baholash mezonlari	Asosiy indikator	Amaldagi qiymat
12	Uch tomonlama integratsiya	Yagona integratsiya indikatorlari	yuritilmaydi

Manba: rasmiy statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi aniq ilmiy xulosalarga kelindi.

Birinchidan, O'zbekistonda kasbga yo'naltirish tizimida qamrov va kompetensiya o'rtasida 100 barobardan ortiq tafovut mavjud: tanishtiruv tadbirlari bilan qamrab olinganlar 1,8 mln nafarni tashkil etsa, bevosita kasbiy tayyorgarlikdan o'tganlar atigi 17 082 nafarni, ya'ni umumiy o'quvchilar sonining 0,26 foizini tashkil etadi. Demak, tizimning bugungi kuchli tomoni — miqyos, zaif tomoni — chuqurlik.

Ikkinchidan, kasbiy ta'limga o'tish voronkasi har bosqichda keskin torayadi: 9-sinf bitiruvchilarining 21,5 foizi kasb-hunar maktabiga hujjat topshiradi, ulardan atigi 10,5 foizi dual ta'limni tanlaydi. Korxona bilan real aloqaga chiqadigan oqim 9-sinf bitiruvchilarining 2,3 foizidan oshmaydi.

Uchinchidan, dual ta'limning 2024–2025-yillardagi o'sishi ekstensiv xarakterga ega: o'quvchilar soni 118,8 foizga, hamkor korxonalar soni 121,9 foizga oshgani holda, bitta ish beruvchiga to'g'ri keladigan o'quvchi soni o'zgarmagan. Bu hamkorlikning chuqurlashmayotganini bildiradi.

To'rtinchidan — va tadqiqotning asosiy ilmiy natijasi sifatida — amaldagi milliy monitoring tizimida «maktab – OTM – korxona» uch tomonlama integratsiyasini o'lchovchi yagona statistik indikator mavjud emas. Bu bo'shliq davlat organlariga qaysi kasbiy yo'naltirish vositalari samarali ekanini ma'lumotlarga asoslanib aniqlash imkonini bermaydi.

Amaliy tavsiya sifatida taklif etilgan o'n ikki mezonli indikatorlar tizimini milliy ta'lim statistikasiga bosqichma-bosqich kiritish, birinchi navbatda esa uch tomonlama shartnomaga biriktirilgan maktablar soni, OTM mentorlari ega o'quvchilar ulushi va korxonada kasbiy sinovdan o'tgan o'quvchilar ulushi kabi uchta bazaviy indikatorni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Keyingi tadqiqotlarda mazkur indikatorlar asosida integral indeks ishlab chiqish va uni hududlar kesimida aprobatsiya qilish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Eichhorst, W., Rodríguez-Planas, N., Schmidl, R., & Zimmermann, K. F. (2015). A road map to vocational education and training in industrialized countries. *ILR Review*, 68(2), 314–337. <https://doi.org/10.1177/0019793914564963>

2. Hooley, T., Sultana, R. G., & Thomsen, R. (Eds.). (2018). Career guidance for social justice: Contesting neoliberalism. Routledge.
3. Kasbiy ta'lim agentligi. (2026). 2025-yil natijalari [Hisobot]. https://gov.uz/oz/kasbiytilim/pages/hisobotlar_
4. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. (2026). Sarhisob brifingi: 2025-yil yakunlari. <https://gov.uz/oz/uzedu/news/view/114278>
5. Mann, A., Denis, V., & Percy, C. (2020). Career ready? How schools can better prepare young people for working life in the era of COVID-19 (OECD Education Working Papers No. 241). OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/e1503534-en>
6. Milliy statistika qo'mitasi. (2025). Barqaror rivojlanish maqsadlari: mehnat bozori va yoshlar bandligi indikatorlari. <https://ns1.stat.uz/uz/goal/11>
7. Musset, P., & Kurekova, L. M. (2018). Working it out: Career guidance and employer engagement (OECD Education Working Papers No. 175). OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/51c9d18d-en>
8. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2025). 2024-yilda kasbiy ta'lim bo'yicha amalga oshirilgan ishlar raqamlarda. <https://gov.uz/oz/edu/news/view/32019>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025). Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida (PQ-316-son qarori, 23-oktabr). <https://lex.uz/uz/docs/-7793420>
10. Stufflebeam, D. L. (2003). The CIPP model for evaluation. In T. Kellaghan & D. L. Stufflebeam (Eds.), International handbook of educational evaluation (pp. 31–62). Springer.